


**QASHQADARYO VILOYATINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2019 yil yanvar-iyun)*


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4920,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,9 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 144,6 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 41,1%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4409,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 365,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,5 % ) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning ko'pchilik tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qamashi (101,8%), Dehqonobod (101,2 %), Qarshi tumani (101,4 %) Kitob (101,2%), Koson (101,1 %) tumanlarida qayd etildi.


**Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgani yilning mos davriga nisbatan kайunish kuzatilib 41,1 % ni va 144,6 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 2,9 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 4775,6 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 105,6 % ga etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 97,1% ga teng.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Koson (100,0%), Kitob (100,0 %), Mirishkor (99,9 %) va Dehqonobod (99,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

ViLOYAT bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shaxrisabz tumanida (19,9 %), Qarshi shahrida (6,8 %) va Qamashi (3,6%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	144,6	<b>41,1</b>	<b>4775,6</b>	<b>105,6</b>
<b>G`uzor</b>	1,9	120,9	189,7	101,0
<b>Dehqonobod</b>	0,3	6,6	251,1	103,4
<b>Qamashi</b>	12,4	2,4 m	337,0	99,7
<b>Qarshi</b>	0,8	106,7	194,2	101,4
<b>Koson</b>	0,2	3,2	478,5	102,3
<b>Kitob</b>	0,0	0,1	321,8	103,2
<b>Mirishkor</b>	0,2	4,8	226,0	102,5
<b>Muborak</b>	3,2	93,7	147,1	100,6
<b>Nishon</b>	0,5	92,5	194,2	100,5
<b>Kasbi</b>	0,7	16,2	213,5	102,5
<b>Chiroqchi</b>	1,2	104,7	414,4	100,6
<b>Shaxrisabz</b>	34,7	2 m	139,7	89,0
<b>Yakkabog`</b>	5,0	5 m	257,4	99,2
<b>Qarshi sh</b>	82,2	28,4	1127,0	124,0
<b>Shaxrisabz sh</b>	1,3	19,7	284,2	102,5

**Shahar va tuman kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019 yil yanvar-iyun oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1524,9 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 98,9 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko`rsatkichlar Qarshi shahri (4429,0 ming.so`m), Shaxrisabz shahri (2068,9 ming.so`m) va Mirishkor (1922,5 ming.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Shaxrisabz (795,5 ming.so`m), Qarshi (799,4 ming.so`m), va G`uzor (953,2 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	953,2	99,3
G`uzor	1732,2	99,6
Dehqonobod	1306,7	99,6
Qamashi	799,4	99,2
Qarshi	1704,1	99,0
Koson	1233,3	99,2
Kitob	1922,5	98,6
Mirishkor	1755,4	98,4
Muborak	1296,5	98,2
Nishon	1106,9	98,7
Kasbi	1028,7	98,0
Chiroqchi	795,5	99,0
Shaxrisabz	1009,9	98,8
Yakkabog`	4429,0	99,4
Qarshi sh	2068,9	98,8
Shaxrisabz sh	953,2	99,3

Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 %ni tashkil etib, 101,1 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2% o`shishga erishildi.

## QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1366,6 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 103,1 % ga o`tdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyun oyi yakunlariga ko`ra, 780,6 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 102,7 % ga o`tdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,1 % ni tashkil qilmoqda.

### Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



■ Yirik korxonadlar  
■ Kichik korxonalar


Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalarining ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	<b>Jami</b> (mlrd.so`m)	<b>O`tgani</b> <b>yilning shu</b> <b>davriga</b> <b>nisbatan,</b> <b>%da</b>	<b>Yirik</b> <b>korxonalar</b> (mlrd.so`m)	<b>O`tgani</b> <b>yilning shu</b> <b>davriga</b> <b>nisbatan,</b> <b>%da</b>	<b>Kichik</b> <b>korxonalar</b> (mlrd..so`m)	<b>O`tgani</b> <b>yilning shu</b> <b>davriga</b> <b>nisbatan,</b> <b>%da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1366,6</b>	<b>103,1</b>	<b>586,0</b>	<b>103,7</b>	<b>780,6</b>	<b>102,7</b>
<b>G`uzor</b>	5,7	54,6	0,2	70,2	5,5	54,2
<b>Dehqonobod</b>	2,2	26,3			2,2	26,3
<b>Qamashi</b>	29,4	2,6 m	17,0	207 m	12,4	110,3
<b>Qarshi</b>	63,0	90,8	17,8		45,2	65,2
<b>Koson</b>	46,0	93,2	0,0		46,0	93,2
<b>Kitob</b>	46,5	123,5	0,0	3,5	46,5	123,6
<b>Mirishkor</b>	45,4	4,7 m	31,7		13,7	141,4
<b>Muborak</b>	36,7	170,4	29,5	2,5 m	7,2	75,3
<b>Nishon</b>	76,5	162,5	31,3	197 m	45,2	95,9
<b>Kasbi</b>	45,1	5 m	33,1	387 m	12,0	141,4
<b>Chiroqchi</b>	23,7	41,6	0,0	80,5	23,6	41,6
<b>Shaxrisabz</b>	10,4	51,6	0,1	31,3	10,3	52,0
<b>Yakkabog`</b>	21,6	76,3	0,1	142,4	21,5	76,0
<b>Qarshi sh</b>	857,5	95,5	424,5	77,4	432,9	123,8
<b>Shaxrisabz sh</b>	56,9	118,6	0,7	17,9	56,2	127,2



**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o`shish sur`atlari Kasbi (5 m%) va Mirishkor (4,7 m %), Qamashi (2,5 m%), tumanlarida qayd etildi. Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`shish sur`atlari esa Dehqonobod (26,3%) va Chiroqchi (41,6 %), Shaxrisabz (51,6 %) tumanlarida qayd etildi.